ALISHER NAVOIYNING TARBIYAGA DOIR QARASHLARI

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida tarbiyaning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan. Mutafakkir asarlaridagi vatanparvarlik, elparvarlik va ma’rifat kabi yuksak insoniy fazilatlarning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Navoiy merosining yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, tarbiya, shaxs kamoloti, ma’naviyat, vatanparvarlik, elparvarlik, ma’rifat, axloqiy tarbiya.

Аннотация. В статье анализируется роль воспитания в развитии личности и общества в творчестве Алишера Навои. Раскрывается воспитательное значение таких высоких человеческих качеств, как патриотизм, служение народу и просвещение, отражённых в произведениях мыслителя. Также освещается значение наследия Навои в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Алишер Навои, воспитание, развитие личности, духовность, патриотизм, служение народу, просвещение, нравственное воспитание.

Abstract. This article analyzes the role of education and upbringing in personal development and social progress in the works of Alisher Navoi. It highlights the educational significance of such high human qualities as patriotism, devotion to the people, and enlightenment reflected in the thinker’s works. The importance of Navoi’s legacy in the spiritual and moral education of the younger generation is also discussed.

Keywords: Alisher Navoi, education, personal development, spirituality, patriotism, devotion to the people, enlightenment, moral education.

Shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni beqiyos. Ko‘hna Sharqda tarbiyaga hayot-mamot masalasi sifatida qaralgani boisi shunda. Modomiki, avlodlar kamoloti tarbiya bilan chambarchas bog‘liq ekan, jamiyat taraqqiyotini undan ayri tasavvur etib bo‘lmasligi ayon. Mutafakkir

ajdodlarimiz shuning uchun ham bu masalaga hayot-mamot masalasi deb qaragan. Ularning jahon badiiy tafakkuri xazinasidan munosib o‘rin olgan asarlarida tarbiyaning shaxs kamoloti, el ravnaqi, yurt istiqbolida tutgan o‘rni yuksak baholangan. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy asarlarida barcha zamonlar uchun dolzarb sanalgan bu muammo ohorli badiiy obraz va timsollar vositasida betakror talqin etilgan.

“Hayrat ul-abror” dostonida buyuk shoir tarbiyaning ahamiyatini mana bunday vasf etadi:

Qatrag‘a chun tarbiyat etti sadaf,

El boshig‘a chiqqucha topti sharaf.

Xalqimizda “Sadafsiz dur bo‘lmas, tikansiz - gul”, degan naql bor. Ushbu baytda qatraning gavharga aylanishi va boshga qadalish darajasiga yetishi sadafning tarbiyasi tufayli ekani betakror poetik ifodasini topgan. Sadaf - ota-ona va ustoz, qatra esa - farzand yoki shogird timsoli. Dostonda asosan ota-ona mazmunida kelgan. Sadaf tarbiyat etmasa, qatra hech qachon gavharga aylanmaydi. Ya’ni, ota-ona hamda ustoz ta’limini olmagan farzand kamolga yetmog‘i mahol. Bu jarayon muayyan vaqt hamda mehnat va zahmat talab qilishi ayon. Gavharni qo‘liga olgan yoki boshiga qadagan odam uning ko‘zni shunchalik quvontiradigan, qimmatbaho ashyoga aylanmog‘i uchun qanday jarayonlarni boshdan kechirgani xususida o‘ylab ham o‘tirmaydi. Hayotda ham shunday. Komil insonni ko‘rganda hamma havas qiladi. Lekin u ana shu darajaga qanday mashaqqatlar bilan, qay bir mehridaryo ota-ona yoki fidoyi ustoz tarbiyasi evaziga erishgani har doim ham mushohada etilavermaydi. Buyuk shoir bu obrazli tasvir orqali shaxs tarbiyasida ana shu siymolarning xizmati beqiyos ekaniga urg‘u beradi.

Quyoshdin tarbiyatgar topsa xoro,

Qilur yoqut ila la’l osh-koro.

Yoqut - turli rangda, la’l esa qizil tusda tovlanadigan qimmatbaho ma’dan. Xo‘sh, ular ko‘zni quvontiradigan, odamlarda estetik zavq uyg‘otadigan bu ranglarni qayerdan oladi? Hazrat Navoiyning fikricha, bu - quyoshdan tarbiyat topgani samarasi. Agar quyoshdan rang olmasa edi, ular oddiy toshligicha qolar, odamlarning qiziqishiga sabab bo‘lolmas edi. Tabiiyki, bu o‘rinda ham ulug‘ mutafakkir yoqut ila la’l haqida so‘z yuritar ekan, bayt zamiriga shaxs kamoloti xususidagi teran fikrlarini joylagan. Ya’ni, inson kamolotini belgilovchi asosiy mezon - tarbiya. Chinakam tarbiyagina odamning imkoniyatlarini oshiradi, jamiyatga naf yetkazish borasidagi salohiyatini yuksaltiradi.

Ulug‘ mutafakkir “Mahbub ul-qulub” asarida tarbiyaga doir mana bunday muhim fikrni bildiradi: “Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat - hayf. Ani adami tarbiyat bila zoe’ qilma

va munga tarbiyatingni zoe' qilma". Ya'ni, hazrat Navoiy fikricha, qobil bolani munosib tarbiya qilmaslik - zulm. Noqobilni tarbiya etishga sarflangan vaqt va quvvat - hayf. "Adami tarbiyat" - tarbiya fursatini boy berish, tarbiya bermaslik. Demak, vaqtni g'animat bilib, qobilni tarbiya qilmoqqa g'ayrat qilish zarur. Noqobilga esa tarbiyani zoe' qilmaslik kerak, baribir foydasiz. Asarda ushbu fikrlar isboti uchun bir qit'a keltiriladi:

Qobilg'a tarbiyat erur ul nav'kim, guhar
Tushsa najosat ichra yuvgay kimsa ani pok.
Gar ituzumig'a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg'aymu ani tok.


Qit'ada qimmatli fikr ifodalangan: najosatga tushgan gavharni bir kimsa yuvsa, pok bo'lgani singari, qobil farzand tarbiya tufayli kamolga erishmog'i mumkin. Lekin nechog'liq parvarish qilinmasin, ituzumni tokka aylantirishning iloji yo'q.

Buyuk ijodkor tarbiyaning ahamiyatini ana shunday ohorli talqin etish barobarida ushbu fazilatlarni mujassam etgan betakror obrazlar yaratdi. Bu obrazlar, besh yarim asrdan oshyaptiki, avlodlarga kamolot saboqlarini berib keladi. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida kuylangan, bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan ana shunday fazilatlardan ayrimlariga to'xtalib o'tish zarurati seziladi:

Vatanparvarlik. Buyuk ijodkor Vatanni sevmoq komillikning, iymonning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi. "Saddi Iskandariy" dostonida bu haqdagi mashhur hadis mazmunini go'zal badiiy talqin etar ekan, avlodlarga: "Vatan hubbi iymon nishonidurur", deya ta'lim beradi. Shunday bo'lgach, Vatanni g'animlardan himoya qilmoq, zarur bo'lsa, buning uchun kurashmoq har bir farzand uchun burchdir. Bu g'oya mazkur dostonda quyidagicha ifodalangan:

Iyolu vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor.

"Iyol" so'ziga "Navoiy asarlari lug'ati"da: "Xotin, bola-chaqa; oila", deya izoh berilgan. Demak, ulug' bobokalonimiz fikricha, vatanparvarlik - oilaning osoyishtaligi, Vatanining tinchligi uchun bor imkonini ishga solib, joni boricha kurashmoq, zarur bo'lsa, harb etmoq - qurol ko'tarmoqdir. Chunki Vatan himoyasi - burch va mas'uliyat, shon-sharaf va or-nomus masalasidir. Barcha zamonlar uchun dolzarb bunday fikrlar ulug' ijodkor asarlarida ko'p uchraydi. Mana, shunday fikrlardan yana biri: Vatan tarkini bir nafas aylama, Vatandan ayri tushmoq - ulkan fojia. Vatanni tark etmoq o'zini mashaqqatlar girdobiga tashlamoq bilan barobardir. Buni hazrat Navoiy "ranji g'urbatni havas aylash", deya ifo-



da etadi. Tarix shohid, ne-ne taqdirlar guvohlik beradi: inson Vatandan yiroqda hech qachon baxtiyor bo‘la olmaydi. “Hayrat ul-abror”da shoir ayni shu mohiyatni “G‘urbat aro holi yomondin yomon, Har ne yo‘q andin yomon, andin yomon”, deya talqin etgani bejiz emas.

Hazrat Alisher Navoiyning mana bu o‘giti ham avlodlar uchun alohida qimmatga ega:

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,

Tila xilvatu anjuman ichra bo‘l.

Bu fikrlar buyuk shoir asarlarida Vatanga muhabbat tuyg‘usi teran mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida, avlodlar qalbi va shuuriga chaqmoqdek ta’sir qiladigan tarzda ifodalanganidan dalolat beradi.

Elparvarlik. O‘zi mansub bo‘lgan ulug‘ elga mehr qo‘yish, el-ulus baxtini o‘z baxti, g‘amini o‘z g‘ami deb bilish shaxs kamolotining muhim shartlaridandir. Yosh avlod qalbida ana shu tuyg‘uni tarbiyalash - muqaddas burch. Buyuk Navoiy asarlarida bu g‘oya yetakchi mavqeda turadi. Birgina misol:



Erur chun olam ichra joh foniy, yaxshi ot boqiy,
Bas, el komin ravo ayla o‘zungni komron ko‘rgach.

Ya’ni, mansab-martabayu mol-dunyo - vaqtinchalik, yaxshi nom esa abadiy. Shunday bo‘lgach, o‘zingni komron ko‘rgach, ya’ni baland mavqega erishgan chog‘ingda el hojatini ravo aylamoqni odat qil - mana, ulug‘ donishmand nima demoqchi! Aslida, haqiqiy elparvarlik ham shuni taqozo etadi. Lekin odamzod hayoti bir tekisda kechmaydi. Hazrat Navoiy har doim ana shunday bir xil fikrlagan, mudom bir xil tuyg‘uni his etgan desak, to‘g‘ri bo‘lmas. Hayot deganlari anchayin murakkab, ziddiyatlarga boy. Ulug‘ mutafakkir garchi hammaga baravar yaxshilik qilishni orzu etgan, imkon qadar bunga erishgan bo‘lsa ham, aksar yaxshiligi evaziga yomonlik ham ko‘rgan. Tabiiyki, bundan iztirob chekkan, ruhan ezilgan, qarama-qarshi tuyg‘ular girdobida qolgan. Mana bu misralar ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Oncha yuzsizlik ulustin ko‘rmisham, gar bersa dast,
Istaramkim, ko‘rmasam hargiz bani odam yuzin.

> *Buyuk ma’rifatparvar ziyolilarning g‘oyalari “Yangi O‘zbekiston – O‘zi mansub bo‘lgan xalqqa mehr qo‘ymoq qanday boilishini hazrat Navoiydek ulug‘lardan o‘rganish kerak. Elparvarlik bobida ham buyuk bobokalonimiz avlodlarga mudom saboq berib kelayotir.*

Hatto bir she’rida ulug‘ shoir “Parim bo‘lsa uchib qochsam, ulusdin to qanotim bor”, deyishgacha borgan. Lekin hazrat Navoiyning buyukligi shundaki, oniy kayfiyatdagi bunday kechinmalarni iroda kuchi, matonat quvvati bilan yenga bilgan; hayot sinovlariga hikmat nazari bilan qaray olgan. Aytishga oson, bunga erishmoq o‘z-o‘zidan bo‘lmagani ayon. Buyuk mutafakkir ziddiyatli kechinmalar girdobidan chiqish uchun hikmatni nainki topgan, teran mazmun va betakror badiiyat uyg‘unligida she’rga ham aylantirgan:

Davr elida gar vafo yo‘q, sen vafo qilg‘il, valek
Kimni xushhol etsang, andin tut o‘zungga yuz.

Vafo ko‘rmaganing holda vafo qilmoq osonmi? Sendan ko‘p yaxshiliklar ko‘rib, xursandchilikdan necha bor ko‘zlarida o‘t chaqnagan odamdan yuz malol kelsa, buni qanday qabul qilish kerak? Bu savollarga javob bermoq anchayin mushkul ekani rost. Hazrat Alisher Navoiy necha bor ana shunday qiyin vaziyatlarga tushgani holda “Davr elida gar vafo yo‘q, sen vafo qilg‘il”, degan to‘xtamga kelgan. Ta’kidlash kerak, faqat buyuk siymolargina bunday xulosa chiqarishi mumkin. Faqat

ulug‘largina hech bir evazsiz yaxshilik qilmoqqa qodir. Yurak yolqini bilan bitilgan mana bu so‘zlar ham ulug‘ mutafakkirlargagina xos:

Ulusqa o‘t solur ersang, meni burun o‘rta,

Nedinki o‘tni tutashturg‘oli kerak xoshok.

Elparvarlikning bundan ham yuksakroq darajasi bo‘lishi mumkinmi? Ulusga fidoyilikning mezoni bo‘la oladigan bunday fikrga kelish uchun elga muhabbatning miqyosi qanchalar baland bo‘lishi kerak axir! Mana bu misralar mohiyatan yuqoridagi baytga har jihatdan hamohang:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Ma’rifat. Shaxs kamoloti, ma’rifat va tarbiya tushunchalari o‘zaro shu darajada bog‘liqki, ularning birini ikkinchisidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qushlar safari timsolida inson kamolotining yetti bosqichi haqida so‘z yuritiladi: talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqru fano. Dostonning maxsus bobi “Ma’rifat vodiysining vasfi” deb nomlangan. Ma’rifat vodiysini “dashti bepoyon”ga qiyoslagan hazrat Navoiy unda “hollar muxtalif” (ixtilofli, bir-biridan keskin farq qiluvchi - qavs ichidagi barcha izohlar bizniki - N.A.) ekanini ta’kidlar ekan, “Vodiedur yuz tuman ming onda yo‘l”, deya odamlarning ma’rifiy darajasi turlicha bo‘lishiga ishora qiladi. Ulug‘ shoirning “juzv ila kull” - bo‘lak va butun, taraqqiy va tanazzul ixtilofi haqidagi fikrlari ham buni tasdiqlaydi.

Muallif fikricha, bu vodiyda “yuz tuman rahrav”ni (yo‘lovchini) ko‘rish mumkin. Pashsha ham, fil ham, Jibril ham yo‘lda. Muso-yu Fir’avn, Mahdiy-u Dajjol, Ahmad va Abu Jahl ham rahrav. Shunday bo‘lgach, ulug‘ shoir ta’biri bilan aytganda: “Muxtalif bo‘lmay ne bo‘lsun munda ish”. Ushbu mulohazalari tasdig‘i uchun hazrat Navoiy Haqqa eltuvchi yo‘llar soni xaloyiqning nufusi bilan barobar ekani haqidagi hadisni keltiradi. Boshqacha aytganda, ma’rifati darajasiga ko‘ra, har bir odam o‘z yo‘lini to‘g‘ri deb biladi. Ular o‘rtasidagi ixtilofning sababi ham shunda. Tanlagan yo‘llari egri yoki to‘g‘ri, yaqin yoxud yiroq, ko‘pragi durd (quyqa), ozrog‘i sof bo‘lsa-da, aslida hammasining maqsadi, to‘g‘rirog‘i, da’vosi bir - haqiqat.

Gar suluk atvorida tag‘yir edi,

Maqsadi lekin borining bir edi.

Dostonning mazkur bobida hazrat Navoiy bir hikoyat keltiradi. Unda yozilishicha, bir necha ko‘zi ojiz kimsa ma’lum muddat musofirlik sababmi, asir tushibmi, Hindistonda bo‘ladi. Taqdir inoyati bilan o‘z yurtlariga qaytib kelganida, bir kishi ulardan so‘raydi: “Filni ko‘rdilaring-

mi?" Ko'rlar tasdiq ishorasini qiladi. "Bunga dalil keltiring", deydi. Tabiiyki, ular filni ko'rmagan, u haqda so'rab ham olmagan edi. Ko'rlarning har biri filning qaysi a'zosini paypaslagan bo'lsa, shungagina asoslanib javob bera ketadi. Oyoqlarini silagani fil bu - "sutun", desa, qornini paypaslagani "besutun" deydi. Xartumini ushlab ko'rgani filni ajdahoga, tishlariga qo'li tekkani uni suyakka mengzaydi. Quyrug'ini silagani ilonga, boshiga qo'l urgani qiyaning tumshug'iga, qulog'ini ushlagani esa yelpig'ichga qiyoslaydi.

Garchi ko'rlarning so'zi fil haqida emas, uning muayyan a'zolari xususida ekanini bilsa-da, "pilbonlig' shevasida ustod" bo'lgan hakimi komil ularning so'zini rad etmaydi.

Dedi: "Har bir ulcha voqif erdilar,

Pil holidin nishone berdilar".

Qissadan hissa shuki, ma'rifatda komil bir maqomga erishmagan kishi bamisoli o'sha ko'rlarning holiga tushadi. O'zi "ushlagani"nigina haq deb bilib, boshqalar bilan ixtilofga boradi, munozara qiladi.

Hayot - insonga chinakam ma'rifatga, kamolotga erishmoq uchun berilgan imkon. Buning asosiy omili esa - tarbiya. Har holda, mutafakkir ajdodlarimiz shunday deb hisoblagan. Kamolga erishmay, "jahondin notamom o'tmak"ni hazrat Navoiy bamisoli hammomga kirib, nopok chiqishga mengzaydi. Kamolga erishmoq esa yuksak ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samarasi. Biz jahonning tarbiya borasida ham beqiyos merosga ega sanoqli xalqlaridan birimiz. Bu sohada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosi hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Navoiy, A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

2.Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3.Navoiy, A. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

4.Navoiy, A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.